



UOK.81-13

ORCID 0009-0000-4117-8600

XO'QAND DO'PPIDO'ZLIK MAKTABI

Mamatova Dilafruz Zafarovna

*Qo'qon davlat pedagogika instituti Axborot resurs markazi,
1-toifali kutubxonachi, tadqiqotchi,
dilafruzmamatova092@gmail.com +998950617117*

Annotatsiya. Do'ppido'zlik san'at darajasiga ko'tarila olgan qadimiy kasb – hunardir. Do'ppi o'zbek xalqi, shu jumladan qo'qonliklar o'rtasida keng tarqalgan bosh kiyimi. Do'ppi XX asrning o'rtalarigacha o'zbekning boshidan tushmagan. Keyin esa..Ovrupo va rus madaniyati, qisman kosmopolitizm ta'siri ostida odamlar bosh yalang yurishga, ba'zilar esa kepka va yaqin o'rtada paydo bo'lgan ayvonchali yupqa qalpoq kiyishga o'tdilar. Ammo boshga kiymasalarda, do'ppi har bir o'zbek bisotida saqlanadi.

Qadimiy turkiy til lahjalarida “tepalik” so'zi “to'ba” shaklida ham uchraydi. Jumladan, Qozog'istonning hozirgi poytaxti Astana shahrining qadimiy nomi “Oqto'ba” (Oqtapa) deb atalgan. “Do'ppi” atamasi mazkur “to'ba” so'zining talaffuzda o'zgargan shaklidir. Zero, do'ppining tashqi ko'rinishi shaklan tepalikni eslatadi. Do'ppi, dastlab, Turonda va Eronda urf bo'lgan bo'lib, keyinchalik boshqa xalqlarga tarqalgan. Oltin O'rda xonlari o'zlariga tobe' bo'lgan rus knyazlariga tobe'lik ifodasi sifatida yorliq berish bilan birga, do'ppi ham kiygizganlar. Knyazlar tantanali marosimlarda va xon huzuriga kelganda boshlariga mazkur do'ppini kiyib yurishlari shart bo'lgan. Shu tufayli, do'ppi volgabo'yi mintaqalarida ham bir muncha tarqaldi.

Kalit so'zlar: Do'ppi, to'ba, “tigra” yohud “tug'ra” cho'qqiqalpoq, salla, Chust do'ppi, Marg'ilon do'ppi, Andijon do'ppi, Qo'qon do'ppi, Iroqi do'pi, Baxmal do'ppi, Oqqar do'ppi, Aka ikki so'm” do'ppi.

ХОКАНДСКАЯ ШКОЛА ТЮБЕТЕЙКИ

Аннотация: Изготовление тюбетеек - древняя профессия, которая поднялась до уровня искусства. Тюбетейка - широко распространенный головной убор узбекского народа, в том числе кокандцев. До середины XX века тюбетейка не падала с головы узбека. Затем, под влиянием европейской и русской культуры, отчасти космополитизма, люди перешли на ходьбу с непокрытыми головами, а некоторые - на кепки и тонкие шапки с террасами, появившиеся неподалеку. Хотя тюбетейка не надевается на голову,

она сохраняется у каждого узбека. В диалектах древнетюркского языка слово "тепалик" встречается и в форме "туба." В частности, древнее название современной столицы Казахстана Астаны - "Актоба" (Актепа). Термин "дуппи" - это измененная в произношении форма слова "туба." Ведь внешний вид тюбетейки напоминает по форме холм. Вначале тюбетейка была в моде в Туране и Иране, а затем распространилась на другие народы. Золотоордынские ханы наряду с грамотами в знак подчинения давали тюбетейки подчиненным им русским князьям. Князья обязаны были носить эту тюбетейку при торжественных церемониях и при появлении у хана. Благодаря этому тюбетейка получила некоторое распространение и в Поволжье.

Ключевые слова: Тюбетейка, туба, "тигра" или "тугра," чокки-калпак, чалма, Чустская тюбетейка, Маргиланская тюбетейка, Андижанская тюбетейка, Кокандская тюбетейка, Иракская тюбетейка, Бархатная тюбетейка, Акпарская тюбетейка, тюбетейка "Ака икки сум."

KOKAND SCHOOL OF SKULLCAP MAKING

Annotation. Doppi-making is an ancient craft that has risen to the level of an art. The doppi is a common headwear among the Uzbek people, including those from Kokand. Until the mid-20th century, the doppi was an inseparable part of Uzbek attire. Then, under the influence of European and Russian culture, and partly cosmopolitanism, people began to go bareheaded, while some started wearing caps and recently introduced thin hats with brims. However, even if they don't wear it on their heads, every Uzbek keeps a doppi in their possession.

Keywords: Hat, toba, "tigra" or "tugra" peaked cap, turban, Chust hat, Margilon hat, Andijan hat, Kokan hat, Iraqi hat, Velvet hat, Akpar hat, Aka two soum hat.

Kirish. Do‘ppido‘zlik san’at darajasiga ko‘tarila olgan qadimiy kasb – hunardir. Do‘ppi o‘zbek xalqi, shu jumladan qo‘qonliklar o‘rtasida keng tarqalgan bosh kiyimi. Do‘ppi XX asrning o‘rtalarigacha o‘zbekning boshidan tushmagan. Keyin esa..Ovrupo va rus madaniyati, qisman kosmopolitizm ta’siri ostida odamlar bosh yalang yurishga, ba’zilar esa kepka va yaqin o‘rtada paydo bo‘lgan ayvonchali yupqa qalpoq kiyishga o‘tdilar. Ammo boshga kiymasalarda, do‘ppi har bir o‘zbek bisotida saqlanadi. Qadimiy turkiy til lahjalarida “tepalik” so‘zi “to‘ba” shaklida ham uchraydi. Jumladan, Qozog‘istonning hozirgi poytaxti Astana shahrining qadimiy nomi “Oqto‘ba” (Oqtepa) deb atalgan. “Do‘ppi” atamasi mazkur “to‘ba” so‘zining talaffuzda o‘zgargan shaklidir. Zero, do‘ppining tashqi ko‘rinishi shaklan tepalikni eslatadi. Do‘ppi, dastlab, Turonda va Eronda urf bo‘lgan bo‘lib, keyinchalik boshqa xalqlarga tarqalgan. Oltin O‘rda xonlari o‘zlariga tobe’ bo‘lgan rus knyazlariga tobe’lik ifodasi sifatida yorliq berish bilan birga, do‘ppi ham kiygizganlar. Knyazlar tantanali marosimlarda va xon huzuriga kelganda boshlariga mazkur do‘ppini kiyib yurishlari shart bo‘lgan. Shu tufayli, do‘ppi volgabo‘yi mintaqalarida ham bir muncha tarqaldi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Joylarning tabiiy sharoiti, odamlarning didi, urf-odati, an‘analari, amaliy san‘at usullari va boshqa omillar ta‘sirida do‘ppining shakl va guli jihatdan turli xillari vujudga kelgan. O‘zbekistonda Chust, Marg‘ilon, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Boysun, Shahrisabz va Qo‘qon do‘ppilari mashhur. Do‘ppi, asosan baxmal, sidirg‘a shoyi, satin va satinning “silon” deb atalgan silliq, yaltiroq naviga ip, ipak, zar bilan gul solinib tikiladi. Do‘ppi “tepa” (matoh doira yoki chetlari biroz qavariq murabba’ (kvadrat) shaklda kesib olinadi), “kizak” (gardish shaklida) va jiyakdan iborat. Bularning barchasi, dastlab, “taglik” deb aytiladi. Do‘ppi tayyorlash ishini do‘ppido‘z amalga oshiradi. Ushbu jarayonni taglikfurush (vodiya “silonfurush” deb ham ataydilar) boshlab beradi. U taglikni zaruriy o‘lchamda qirqib olgach, gul bosadi, ya‘ni, gul shakli tushirilgan yog‘och qolipni gilvata eritmasiga botirib olib, taglikning tegishli joyiga bosadi. Natijada, taglikda bo‘lajak gulning tarxi (konturi) hosil bo‘ladi. Navbatdagi jarayon chevar tomonidan amalga oshiriladi. Chevar tarx chiziqlari (kontur)ni oq ip yoki ipak bilan zich qilib tikib chiqadi.

Muhokama va natijalar. Ilgari chok ostiga hech narsa qo‘yilmay tikilaverilgan. Keyinchalik esa, chevarlar chizmachilik qog‘ozini zaruriy o‘lchamda qirqib, chok ostiga qo‘yib tikadigan bo‘ldilar. Chevar gul tikib bo‘lgach, do‘ppi tayyorlovchi taglikka surp, bo‘z, chit yoki boshqa arzonroq fabrika matohidan tayyorlangan astar qadab, ishni tepchikchiga oshiradi. Tepchikchi tepchik qiladi, ya‘ni, ipni sirtga chiqarmay mayda yo‘l bilan qaviydi. Endigi navbat piltakashga. Piltakash qog‘ozni chimchaloq enida kesib, piltakach deb aytiladigan po‘lat simdan tayyorlangan, bir tomoniga kichkinagina yog‘och dastacha o‘rnatilgan maxsus asbobga uyurma usulida zich qilib o‘rab, qaviq orasiga suqub kiritadi. Bu jarayon “pilta urish” deb aytiladi. Pilta, ta‘bir joiz bo‘lsa, do‘ppining qovurg‘asidir. Biz, muzey xodimlariga ko‘plab qo‘lyozma kitoblarni ko‘rib chiqishga to‘g‘ri keladi. Ba‘zan noyob, shildiroq qo‘qon qog‘oziga yozilgan kitoblar varaqlarining hoshiya (chetki) qismlari qirqib olinganini ko‘ramiz. Qirqib olingan hoshiyalar, qiyinchilik, qog‘oz kam bo‘lgan yillarda, sababi tirikchilik, do‘ppini piltalash uchun ishlatilganligi bizga ma‘lum. Xalq orasida mashhur bo‘lgan “ustida bir choynak choy turadigan” do‘ppilarning piltasi aynan qo‘qon qog‘ozidan urilar edi. Yakuniy ish yana do‘ppi tayyorlovchi zimmasida bo‘ladi. U pilta urilgan tepa va kizakni bir-biriga ulab, jiyak qadaydi. Bu jarayon do‘ppido‘zlar tilida “do‘ppi o‘tqazish” deb ham aytiladi. Jiyak qora ipdan yo‘rma usulida to‘qiladi. So‘ngra, do‘ppining ichki tomoniga yelim (ko‘pincha duradgorlik yelimi ishlatiladi) surtilib, quritiladi. Oxirida, do‘ppi qurigach, ikki karj qilib buklanib, taxtakachga bostiriladi. Ma‘lum muddat taxtakachda turgach, ochilib, toza ro‘mol ustiga qo‘yilib, to‘qmoqcha vositasida taxlari yediriladi. Mana, do‘ppi ham tayyor.

Do‘ppilarimizning bobokaloni qadimgi ajdodlarimiz bo‘lmish shaklarda urf bo‘lgan, “tigra” yohud “tug‘ra” deb atalgan cho‘qqili qalpoqdir. Bu qalpoq ularda shu qadar urf bo‘lganki, shakllarning katta bir guruhi “shaka tigraxauda” – “cho‘qqi qalpoq kiygan shaklar” deb nomlangan. Dastlabki do‘ppilar ham cho‘qqiqalpoq shaklida edi. Asta-sekin, vaqtlar o‘tishi bilan ularning shakli va bezagi o‘zgarib bordi. Salla urf bo‘lganidan so‘ng do‘ppilarning bir qismi sallaga moslanib tikiladigan bo‘ldi, ya‘ni, do‘ppining cho‘qqisi biroz pasaytirilib,

gardishlarining eni kengaytirildi, kizagiga gul tikilmaydigan bo‘ldi. Yana vaqtlar o‘tishi bilan do‘ppining tepasi yumaloq, yarim yumaloq va chorsi (to‘rtburchak) shakl oldi. Cho‘qqidor shakl faqat takiya do‘ppilardagina saqlanib qoldi.

Farg‘ona vodiysida asosan Chust do‘ppi, Marg‘ilon do‘ppi, Andijon do‘ppi, Qo‘qon do‘ppi, Iroqi va boshqa do‘ppilar kiyish urf bo‘lgan. Shuni ta’kidlab o‘tishimiz lozimki, san’atshunoslikka, do‘ppi tarixiga bag‘ishlangan adabiyotlarda Chust do‘ppisi va qisman Marg‘ilon do‘ppilari tan olingan holda Andijon va Qo‘qon do‘ppilari deyarli qalamga kam olinadi. To‘g‘ri, Chust do‘ppisi Markaziy Osiyoga tarqaldi, biroq Andijon va Qo‘qon do‘ppilarining ham o‘ziga yarasha o‘rni, tarqalgan mintaqalari bor.

Chust do‘ppi. Qora va zangor matohga tikiladi. Tepa qismining har bir karjiga bittadan bodomsimon gul tikiladi. Kizagining har bir tomoniga turttadan ravoq solinadi. Bodom – to‘kinsochinlik, hosildorlik, baquvvatlik; ravoqlar esa yorqin kelajak ramzidir. Chust do‘ppining gardishi boshqa do‘ppilarnikiga nisbatan enliroq (balandroq) bo‘lib, to‘rtta burchagi tashqariga chiqibroq turadi.

Andijon do‘ppi. Chust do‘ppisiga juda o‘xshab ketadi. Ko‘pincha zangor satinga tikiladi. Chust do‘ppisidan bodom gullari va bodom ichiga tikiladigan gullar bilan biroz farq qiladi. O‘xshashlik jihatidan ko‘proq bo‘lgani uchun san’atshunoslikda Chust do‘ppi soyasida qolib ketgan.

Marg‘ilon do‘ppi. Asosan qora, qisman zangor va nosrang satin va silondan tikilgan. Tepasiga qalampir tasviri tushirilgan. Qalampir – ishchanlik, harakatchanlik, qizg‘in hayot, o‘tkir faoliyat belgisi, shuningdek, turli balo – qazolar va sehr – jodu, qora ruhlardan himoya vositasidir.

Qo‘qon do‘ppi. O‘tmishda qo‘qon do‘ppining ikki xili mavjud edi:

1. *Andijon nusxa Qo‘qon do‘ppi.* Tepasidagi bodom guli Andijon do‘ppisiga o‘xshash bo‘lsada, unga nisbatan vazminroq, siporoq, san’atkorona yo‘l bilan erishilgan odmilikka ega edi.

2. *Marg‘ilon nusxa Qo‘qon do‘ppi.* Bu do‘ppi ham Marg‘ilon do‘ppiga nisbatan, yuqorida eslatilgandek, san’atkorona odmi bo‘lgan. Keyinchalik Marg‘ilon nusxa Marg‘ilon do‘ppisi bilan qo‘shilib ketib, Andijon nusxasi yagona “Qo‘qon do‘ppi” degan nomni saqlab qoldi.

Har bir do‘ppining o‘z hududi, chegarasi bo‘lgan: vodiyning Sirdaryo shimolidagi yerlarda Chust va Andijon do‘ppilari, janubi-sharqida Marg‘ilon do‘ppi, g‘arbiy qismi hamda Tojikistonda Qo‘qon do‘ppi ko‘proq kiyiladi.

Baxmal do‘ppi. Sidirg‘a qora, zangor va ba‘zan ko‘k baxmaldan tikilgan. O‘tmishda, asosan, Toshkent shahrida kiyilgan. XX asr oxirlarida vodiya ham kiyila boshlandi.

Iroqi do‘ppi. Dastlab Shahrisabzda paydo bo‘lgan. XIXasrda vodiya ham kirib kelgan. Ayollarniki alohida, erkaklarniki alohida bo‘lgan. iplari sug‘urilib, to‘r holiga keltirilgan surpga rangdor ipak yoki ingichka tolali paxta ipi bilan terma va bosma usullarida tikiladi. Ko‘pincha gul va bulbul tasvirlari tushiriladi.

Oqqar do‘ppi. Qo‘qonda ijod qilingan. Tapa qismiga, har bir karjiga qo‘shbodom tasviri tushirilgan. Bodomlar bir-biriga simmetrik holda joylashgan. Qo‘shbodom tasviri falsafiy ma‘no kasb etib, har bir narsaning, har bir jonzo‘tning o‘z jufti bo‘lishidan, hayot tadriji juftlashish hosilasi ekanligidan bahs etadi. Qo‘shbodom atrofi ipak hoshiya bilan o‘rab olingan bo‘lib, hoshiyadan tashqi tomonga chiziqcha – popukchalar chiqarilgan. Bu tasvir uzoqdan qush parini ham eslatadi – shu tufayli, “Oqqar” deb nom olgan. Erkaklarning oqqar do‘ppisi siporoq bo‘lib, faqat oq ipak bilan tikilgan.

“Aka ikki so‘m” do‘ppi. Hayit yaqinlashib qoldi. Ostonaquli ustasidan simkor (haftalik ish haqi) olib, do‘ppi bozoriga bordi. Bozorni aylanib, do‘ppilarni ko‘rdi, qaysinisini olishni bilmay, boshi qotdi. Nihoyat, paranji tutgan bir qizning qo‘lidagi do‘ppilar ma‘qul kelib, ularga haridor bo‘ldi:

- Qani, singil, do‘ppilarni bir ko‘raylik-chi.

Qiz hali bozorda yangi bo‘lib, haridor chaqirish, molini ko‘z-ko‘z qilish, haridorni “aylantirish”, qisqasi, savdo-sotiq ilmini yaxshi o‘rganib olmagan ekan, paranji ichida bo‘lsa ham uyalib, “Mana, ko‘ravering”, - deb do‘ppilarni uzatdi. Ostonaquli bitta do‘ppini ichi-tashini puxta o‘rganib, boshiga kiydi – loppa-loyiq.

- Mana shu do‘ppingiz necha pul, singlim?

- Aka, ikki so‘m.

- Yarim so‘m beray?

- Yo‘q, bo‘lmaydi, aka, ikki so‘m.

- Mayli, bir so‘m bo‘la qolsin?

- Yo‘q, aka, ikki so‘m.

- Obbo, juda qattiq ekansiz-u, mayli sizning aytganingiz ham emas, mening aytganim ham emas, bir yarim so‘m so‘m oling?

- Yo‘q, aka, ikki so‘m. Olmasangiz, bering, boshqa haridor chiqar, – deya qiz qo‘lini uzatib, do‘ppini Ostonaqulidan olishga harakat qildi. Shunda uning bilagi ochilib, bilagidagi tariqdek xoli yigitni o‘ziga rom qildi.

- Keling, bera qoling?

- Yo‘q, aka, ikki so‘m dedimmi, tamom

Yigitga qizning sodda o‘jarligi sham’a qilib, bir hazillashgisi keldi:

- Juda o‘jar ekansiz-ku, uch so‘m beray?!

Qiz hazilni fahmlamay, beixtiyor o‘ziga yod bo‘lib ketgan so‘zni takrorlaydi:

- Yo‘q, aka, ikki so‘m.

Aytishga aytdi-yu, o‘z xatosini fahmlab qoldi. Kulishdilar. Ostonaquli uchta bir so‘mlik uzatgan edi, qiz bir so‘mini do‘ppiga qo‘shib qaytarib berdi: - Nasib qilsin, yaxshi kunlaringizga buyursin. Ostonaquli do‘ppini uyiga olib kelishga – olib keldi-yu, qizning uyini, kim ekanligini surishtirib, bilib olmaganiga pushaymon yedi. Kelgusi bozor yana chiqdi, lekin qizni topa olmadi, uning yuzini ko‘rmagan bo‘lsa, qayerdan ham topsin. Ostonaquli bir necha bozor

qizni izlab topa olmagach, taqdirga tan berdi. Do‘ppini uch kun hayitda kiyib, uy to‘ridagi qoziqqa osib qo‘ydi.

Hayot ekan, bir yildan so‘ng uylandi. Kuyov – kelin chimildiqqa kirib, hamma chiqib ketgach, yanga bir barkashga shirinlik va choy qo‘yib, ichkariga kirgizib yubordi. Kelin choy quyib Ostonaquliga uzatdi. Choy uzatar ekan, bilagi ochilib, kuyovning ko‘zi undagi xolga tushdi. Nahotki, o‘sha qiz bo‘lsa? O‘zida yo‘q shodlangan Ostonaquli kelinga qarab so‘z otdi:

- Singil, do‘ppi necha pul?
- Aka, ikki so‘m...

Do‘ppido‘z enalarimizning xotirlashlaricha, do‘ppining nomi shu tariqa kelib chiqqan ekan. Bu do‘ppi o‘rtahol va qo‘li qisqaroq kishilarga mo‘ljallangan bo‘lib, los yoki satin taglikka tikilgan. Kizagiga kamar tasviri, tepasiga esa tagnishon tasviri tushirilgan.

Xulosa. Har bir do‘ppining o‘z hududi, chegarasi bo‘lgani kabi millati irqi urf odat qadryatlaridan kelib chiqib barpo bo‘lgan. XX asrning yetmishinchi yillarida tikuv mashinalarida tikilgan do‘ppilar paydo bo‘ldi. Mashinada tikilgan do‘ppilar sifat jihatidan qo‘lda tikilgan do‘ppilardan qolishmaydi, ularni bir-biridan tajribali ko‘zlargina farqlay oladi. Shunday bo‘lsada, qo‘lda tikilgan do‘ppi dilga yaqinroq tuyuladi, qadrlanadi, bahosi ham qimmatroq yuradi. Hozirgi paytda esa, guli tikma usulda emas, balki, bosma yoki qadama (applikatsiya) usulida tushirilgan, yog‘in – sochinga chidamli, yuvib – yuvib kiyiladigan, havo aylanishi uchun teshikchalar ochilgan do‘ppilar paydo bo‘ldi. XX asrning yetmishinchi – saksoninchi yillarida do‘ppilarning yangi nusxasi urf bo‘lgach, ayrim hudud yani Qo‘qon do‘ppisi juda kam kiyiladigan bo‘lib qoldi. XX asr boshlarida do‘ppilar xalq orasida yana turli xil shakllarda insonlarning boshida paydo bo‘lib, urfga kirmoqda.

ADABIYOTLAR:

1. Abdiyev Murodqosim Bolbekovich Sohaviy leksikaning sistem tahlili (Samarqand viloyati kasb-hunarlar materiallari asosida) F.f.n.avtorefirati Toshkent-2005
2. Muhammad Yahyoxon Xo‘qandiy. Xo‘qandi latif hunarmandchiligi. Toshkent, 2021-yil.
3. Mamatova D. WAYS TO ELIMINATE THE SHORTCOMINGS OF WRITTEN SPEECH IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS //JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN. – 2023. – T. 6. – №. 5. – C. 229-236.
4. Dilafruz M. THE HISTORY OF THE STUDY OF UZBEK DIALECTS //International Journal of Education, Social Science & Humanities. – 2024. – T. 12. – №. 6. – C. 1082-1085.
5. Zafarovna M. D. Methods of teaching the subject" Cohesive parts" in primary school lessons //Indonesian Journal of Public Policy Review. – 2022. – T. 19.